

## TOPISHMOQLAR USTIDA ISHLASHNING QULAY METODLARI

*Zakirova Maqsuda Atayevna*

*UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ona tili va adabiyot mashg`ulotlarida juda katta samara beradi. Har bir mavzuga interfaol metodlarni tatbiq qilgan holda dars o`tish pedagoglardan yuqori kasbiy mahorat talab qiladi.

Ushbu maqolada adabiy topishmoqlarda metaforik ko`chimlarni o`rgatish bo`yicha dars o`tish bo`yicha bir nechta metodlarga to`xtalangan.

**Kalit so`zlar:** topishmoq, metaforik ko`chim, bittasi ortiqcha metodi,

Topishmoq o`zbek folklorining alohida, mustaqil va ommaviy janrlaridan biri bo`lib, hayotni o`ziga xos badiiy idrok etish shakli sifatida hozirgacha yashab kelmoqda. Unda insonni o`rab olgan borliq hodisalari turli poetik ko`chimlar, o`xshatishu qiyoslashlar, savol-javoblar vositasida ixcham badiiy shaklda aks ettiriladi.

Topishmoq janri barcha xalqlar folklorida uchraydi. Shu bilan birga har bir xalqning topishmog`i o`sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida betakror xususiyatlarni namoyon etadi.

Hozirgi paytda topishmoqlardan ta`lim-tarbiya jarayonida ham metodik vosita sifatida qo`llanayotganini ko`rish mumkin. Lekin topishmoqlar ustida ishlash uchun qulay metodik usullar ko`p.

Topishmoqlar ham o`quvchilarning mantiqiy tafakkurini o`stirishda qulay vosita ekanligini inobatga olib, uni o`rgatishni qiziqarli tashkil qilish maqsadida aynan o`quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko`nikmalariga ega bo`lishlarini ta`minlashga xizmat qiluvchi **“Bittasi ortiqcha” (beshinchisi, oltinchisi, ettinchisi, ...ortiqcha) metodidan** foydalanish mumkin. Ushbu metod bunda alohida ahamiyat kasb etishiga shubha yo`q. Uni qo`llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o`rganilayotgan topishmoq mavzu-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo`lgan tizimdan topishmoqqa taalluqli bo`lgan to`rtta (beshta, oltita, ... ) va taalluqli bo`lmagan bitta tushunchaning o`rin olishiga erishish;
- o`quvchilarga topishmoqqa taalluqli bo`lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o`quvchilarni o`z hharakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o`quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o`tishlari hamda ular o`rtasidagi mantiqiy bog`lilikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va dalillay olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

«3/3» («4/4», «5/5», ...) **metodi** yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o'quvchilardan o'rganilayotgan topishmoq mavzusi yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni ta'minlaydi. Unga ko'ra, o'qituvchi topishmoq mavzusi yuzasidan uchta (to'rtta, beshta va hokazo) to'g'ri va unga teng nisbatda (uchta, to'rtta, beshta) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimdan topishmoq mavzusiga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda topishmoq mavzusiga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar topishmoq mavzusiga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

Ba'zan bu aqliy o'yin-topshiriqni bajarish davomida guruhlarga ajratilgan topshiriqlar soni ham o'quvchilar qiziqishini oshirish maqsadida o'yin-topshiriq raqamiga teng qilib olinadi. Masalan, «5/5» metodida o'quvchilar 5ta shartni yoki topshiriqni bajaradilar. Topishmoq mavzusi va uning ko'rinishlarini takrorlash yuzasidan o'tkaziladigan «5/5» metodida shartlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

**1-“Kim chaqqon?” sharti.** Har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, doskada yelimlangan matn tarkibidan maqollarning javoblarini topadilar. Shartni to'g'ri va chaqqonlik bilan bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

**2-“Kim zukko?” sharti.** Guruhlardan keyingi ishtirokchi chiqib, topishmoqlar haqida nazariy ma'lumot beradi.

**3-“Kim dono?” sharti.** Beshlik guruh ishtirokchilaridan biri tez va to'g'ri holatda topishmoqning turlariga mos misollar aytadi.

**4-“Kim topqir?” sharti.** Beshlik guruh ishtirokchilaridan biri tez, to'g'ri topishmoqlardagi qofiyadosh so'zlarni aytish topshirig'ini bajaradi.

**5-“Kim bilag'on?” sharti.** O'zbek xalq topishmoqlari va maqollarining o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib berishadi.

«Sirli maktub» **metodi** o'yin-topshiriq turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarda mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirish, o'rganilayotgan mavzuga oid

tushunchalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Jarayon uchun 8-10 daqiqa ajratib, kichik guruhchalarda tashkil etiladi. Har bir o'quvchi o'zi bilgan topishmoqdan birortasini yozib, idishga soladi. Keyin ular yaxshilab aralashtiriladi va o'quvchilarga bittadan olish taklif qilinadi. O'quvchilar o'zlari olgan topishmoqni o'qib, nima haqda ekanini, javobini aytishlari kerak bo'ladi. Bunda, bir tomondan, sinfdoshlar bir-biri haqida yangi, oldin bilmagan jihatlarni bilib olishga muvaffaq bo'lsalar, ikkinchi tomondan, murakkab tuzilishli so'zlar ifodalagan lug'aviy ma'nolarni qay darajada o'zlashtirganlari sinovdan o'tadi. Bunday o'quv mashg'uloti o'quvchilarni mantiqiy mushohada yuritishga, ziyraklikka o'rgatadi.

Kichik guruhchalar ishini xulosalashda o'quvchilarning topishmoqlardan o'rinli foydalana olganliklariga, uning javobini asoslay olishlariga, topqirlik va zukkoliklariga alohida e'tibor qaratilib, bular baholash jarayonida inobatga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, barcha mavzular ta'limida ham bu kabi o'yin-topshiriqli topishmoqlardan foydalanish imkoniyati bor. Mazkur o'yin-topshiriqlar qiziqarli bo'lib, undan qay darajada foydalanish o'qituvchining mahoratiga va o'quvchilarning imkoniyatlariga bog'liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. Darslik-majmua. – T.: O'qituvchi, 1994. – 256 b.
2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 216 b.
3. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: O'qituvchi", 1990. – 304 b.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – T.: Musiqa, 2010. – 368 b.
5. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 151 b.
6. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. – T.: Fan, 1989. – 312 b.
7. Qahramonov Q. Bolalikka oshufta ko'ngil. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. – 40 b.
8. Husainova 3. Topishmoqlar // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, birinchi tom. – T.: Fan, 1988. – B.100-101.
9. Abdurahmon Akbar. G'aroyib avtobus: quvnoq she'rlar, ertak va topishmoqlar, adabiy saboqlar. – T.: "O'qituvchi" NMIU, 2012. – 103 b.
10. Akbar Abdurahmon. Cho'ntakdagi daraxt. She'rlar, topishmoqlar, ertaklar, tarjimalar / A.Akbar.–T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018.–200 b.
11. Miraziz A'zam. Qirq bolaga qirq savol. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001. – 20 b.
12. Miraziz A'zam. Bolalar uchun asarlar. Saylanma. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005. – 560 b.
13. Po'lat Mo'min. Oftob chiqdi olamga. She'r, qo'shiq, ertak va topishmoqlar. – T.: O'zdavnashr, 1956. – 172 b.

14. Sayfiddinova Mumtozbeqim. She`riy topishmoqlar. – T.: Yurist-media markazi, 2018. – 32 b.
15. Turdiyeva Kavсар. Topgan topaloq: maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun. – T.: Bekinmashoq–Plyus, 2001. – 18 b.
16. Ermatov Nabijon. 99 topishmoq va tez aytishlar. Uchinchi kitob. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – 84 b.
17. Ermatov, Nabijon. 99 topishmoq va tezaytishlar. Kasb-hunar kollejlari uchun kichik o`quv qo`llanma. 15-kitob, 2-nashr /N.Ermatov. – T.: Kamalak, 2018. – 80 b.
18. G`afurov Sobit. Topag`on bola: tez aytishlar,xandalar,topishmoqlar. (Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun).– T.:Yulduzcha,1988.– 46 b.
19. Topishmoqlar. O`zbek xalq ijodi. Ko`p tomlik. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Z.Husainova. – T.: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981. – 368 b.